
ICHKI YO'LLAR SHAG'ALLASHTIRILIB, ASFALTLASHGA TAYYORLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qaroriga ko'ra, Toshloq tumanida bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ayni kunlarda tumanning eng olis va chekka qishloqlarida ichimlik suvi tarmoqlarini tortish ishlari bilan bir qatorda ko'chalar, yo'llar asfaltlashga tayyorlanmoqda. Xususan, hozirgi kunda shag'allashtirish ishlari ketayotgan Istiqlol MFYdagi Chaman, Yuksalish ko'chasini 6 km qismini asfaltlashtirish uchun 2 milliard 154 mln so'm, Konizar MFYdagi ichki yo'llarni ta'mirlash uchun esa 2 milliard 171 mln so'm mablag'lar ajratildi. O'z navbatida ko'p yillar o'nqur-cho'nqir bo'lib, aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lib kelayotgan ushbu muammolar bugungi kunda o'z yechimini topayotganidan aholi juda mamnun bo'lmoqda.

2023-02-07 16:18:12